

## TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY TAFAKKURNI SANOGEN SHAKLLANTIRISHNING QONUNIYAT, TAMOYIL VA MEXANIZMLARINI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

**Sabirova Charosxon Atamamatovna,**

*Urganch innovatsion universiteti "Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi mudiri, professor*

*E-mail: charossabirova85@gmail.com*

*ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-0193-7603>*

**Annotatsiya.** Maqolada talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkurni sanogen shakllantirishning qonuniyatlari, tamoyillari va mexanizmlarining ilmiy-pedagogik asoslari tahlil qilingan. Sanogen tarbiyaning patogen tafakkurni bartaraf etishdagi nazariy imkoniyatlari, uning kognitiv, qadriyatga yo'naltirilgan, emosional-irodaviy va refleksiv mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda sanogen tarbiya talabalar ma'naviy barqarorligi, ichki nazorati va ma'naviy immunitetini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida asoslangan.

**Kalit so'zlar:** sanogen tarbiya, ma'naviy-axloqiy tafakkur, pedagogik modellashtirish, tarkibiy-strukturaviy model, refleksiya, qadriyatli fikrlash, axloqiy qaror, ichki barqarorlik, ma'naviy immunitet, pedagogik jarayon.

**Аннотация.** В статье проанализированы научно-педагогические основы закономерностей, принципов и механизмов саногенного формирования духовно-нравственного мышления студентов. Раскрыты теоретические возможности саногенного воспитания в преодолении патогенного мышления, а также его когнитивные, ценностно-ориентированные, эмоционально-волевые и рефлексивные механизмы. Обосновано, что саногенное воспитание является эффективным педагогическим средством развития духовной устойчивости, внутреннего контроля и нравственного иммунитета студентов.

**Ключевые слова:** саногенное воспитание, духовно-нравственное мышление, педагогическое моделирование, структурно-компонентная модель, рефлексия, ценностное мышление, нравственное решение, внутренняя устойчивость, духовный иммунитет, педагогический процесс.

**Annotation.** The article analyzes the scientific and pedagogical foundations of the patterns, principles, and mechanisms of sanogenic formation of students' spiritual and moral thinking. The theoretical possibilities of sanogenic education in overcoming pathogenic thinking, including cognitive, value-oriented, emotional-volitional, and reflexive mechanisms, are revealed. The study substantiates sanogenic education as an effective pedagogical tool for developing students' spiritual stability, internal control, and moral immunity.

**Key words:** sanogenic education, spiritual and moral thinking, pedagogical modeling, structural-component model, reflection, value-based thinking, moral decision-making, inner stability, spiritual immunity, pedagogical process.

**Kirish.** Zamonaviy globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tafakkurini sog'lom yo'nalishda shakllantirish pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarining nafaqat kasbiy kompetensiyalarini, balki ularning ma'naviy barqarorligi, axloqiy tanlovi va ongli hayotiy pozitsiyasini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bugungi murakkab ijtimoiy-madaniy muhitda shaxsning ma'naviy-

axloqiy tafakkuri uning salbiy g'oyalar, destruktiv ta'sirlar va ichki ziddiyatlarga qarshi turishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'naviy-axloqiy tafakkur insonning voqelikni qadriyatlar asosida anglash, axloqiy mezonlarga tayangan holda baholash va ongli qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Biroq zamonaviy ijtimoiy sharoitda yoshlar tafakkurida beqarorlik, stereotipli fikrlash, ma'naviy passivlik, ichki nazoratning susayishi kabi holatlar kuzatilishi ularning ma'naviy immunitetiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan shaxs tafakkurini sog'lomlashtirish, unda ijobiy fikrlash, ichki barqarorlik va ma'naviy mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan sanogen tarbiya yondashuvi ilmiy va pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanogen tarbiya shaxs tafakkurini salbiy, destruktiv va patogen holatlardan xalos etib, unda sog'lom, ma'noli va barqaror fikrlash tizimini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvda tarbiya faqat tashqi nazorat yoki axloqiy me'yorlarni singdirish bilan cheklanmay, balki shaxsning o'z-o'zini anglash, refleksiya, ichki nazorat va ma'naviy tanlov mexanizmlarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Shu bois sanogen tarbiya talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkurni shakllantirishning ilmiy asoslangan pedagogik modeli sifatida alohida tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkurni sanogen shakllantirishning qonuniyatlari, tamoyillari va mexanizmlarining pedagogik asoslari tahlil qilinadi hamda sanogen tarbiyaning patogen tafakkurni bartaraf etishdagi nazariy imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi sanogen tarbiya asosida talabalarning ma'naviy barqarorligi, ichki nazorati va ma'naviy immunitetini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat.


**Adabiyotlar tahlili va metod.** Sanogen tarbiyaning patogen tafakkurni bartaraf etishdagi nazariy imkoniyatlari, avvalo, inson fikrlash tarzini "salbiy holatlar bilan kurashish"dan ko'ra "sog'lom ma'no, ichki barqarorlik va ongli tanlov" asosida qayta qurish g'oyasiga tayanadi. Tadqiqotlar insonning ichki pozitsiyasi va ma'no orqali o'zini qayta shakllantirishini muhim mexanizm sifatida ko'rsatadi: "Biz vaziyatni o'zgartira olmay qolgan paytimizda, o'zimizni o'zgartirish sinovi oldimizda turadi.".[8.56] Shu nuqtai nazardan tadqiqotda sanogen tarbiya tushunchasi sog'lomlashtiruvchi tarbiyaviy tizim sifatida, patogen tafakkur esa ma'naviy-axloqiy beqarorlik, salbiy stereotiplar va ichki ziddiyatlarni kuchaytiruvchi fikrlash tarzi sifatida talqin qilinib, sanogen tarbiyaning patogen tafakkurni yumshatish va bartaraf etishga qaratilgan nazariy resurslari izchil asoslab beriladi.

Patogen tafakkur tushunchasi ilmiy-nazariy jihatdan inson ongi, fikrlash tarzi va ichki ruhiy holatida salbiy, buzuvchi va beqaror holatlarni vujudga keltiruvchi tafakkur shakli sifatida talqin qilinadi. "Patogen" atamasi salbiy holatlarni keltirib chiqaruvchi, shaxs rivojiga to'siq bo'luvchi omillar majmuasini anglatib, patogen tafakkur insonning voqelikni noto'g'ri idrok etishi, voqea-hodisalarni salbiy prizmadan baholashi va o'z

hayotiga nisbatan ma'nosizlik yoki umidsizlik hissini shakllantirishi bilan xarakterlanadi. Bunday tafakkurda shaxs tashqi ta'sirlarga haddan tashqari bog'liq bo'lib qoladi, o'z imkoniyatlariga ishonchsizlik, mas'uliyatdan qochish va axloqiy passivlik holatlari kuchayadi. Patogen tafakkurning asosiy belgilari qatoriga kognitiv sohada stereotipli, biryoqlama va destruktiv fikrlash, voqelikni umumlashtirib salbiy baholash, o'z-o'zini qadsizlantirish va sabab-oqibat aloqalarini noto'g'ri anglash kiritiladi. Emosional jihatdan esa patogen tafakkur doimiy xavotir, qo'rquv, tushkunlik, g'azab va ichki zo'riqish holatlari bilan namoyon bo'ladi. Axloqiy sohada bu tafakkur mas'uliyatsizlik, befarqlik, vijdonning susayishi, ijtimoiy me'yorlarga nisbatan nigilistik munosabat va axloqiy qarorlarda tashqi omillarga tobelik orqali ifodalanadi. Ushbu ko'rinishlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, shaxs tafakkurida salbiy aylanma jarayonni vujudga keltiradi.

Patogen tafakkur shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, u inson ongida ma'no va maqsadni yo'qotishga olib kelib, hayotga nisbatan passiv munosabatni shakllantiradi. Bunday holatda shaxs o'z xatti-harakatlari uchun ichki javobgarlikni his etmaydi, axloqiy tanlovlarini ongli ravishda emas, balki vaziyat yoki tashqi bosim ta'sirida amalga oshiradi. Natijada, ma'naviy barqarorlik zaiflashadi, ichki nazorat mexanizmlari ishdan chiqadi va shaxs ijtimoiy hamda axloqiy jihatdan moslashuvchanligini yo'qota boshlaydi

(2.4-rasm).



2.4-rasm. Patogen tafakkur va uning belgilari

Shuningdek, patogen tafakkur shaxsda ma'naviy immunitetning susayishiga sabab bo'lib, uni turli salbiy ijtimoiy ta'sirlar, axloqiy buzilishlar va destruktiv g'oyalarga nisbatan himoyasiz qiladi. Bu holat ta'lim-tarbiya jarayonida maxsus ilmiy-pedagogik yondashuvni, jumladan, sanogen tarbiya asosida tafakkurni sog'lomlashtirishni taqozo etadi. Shu ma'noda patogen tafakkurni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur anglash va uning

salbiy ta'sir mexanizmlarini ochib berish sanogen tarbiyaning nazariy imkoniyatlarini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanogen tarbiya va sanogen tafakkur tushunchalari zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda inson ongi, tafakkuri va ma'naviy barqarorligini sog'lomlashtirishga qaratilgan nazariy kategoriyalar sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu tushunchalar insonni salbiy holatlar, destruktiv fikrlash va ruhiy beqarorlikdan faqat himoya qilish emas, balki unda ijobiy, ma'noli va barqaror tafakkurni ongli ravishda qaror toptirish jarayonini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Sanogen tarbiyaning pedagogik va psixologik mohiyati inson ongi, tafakkuri va hissiy holatlarini sog'lomlashtirishga qaratilgan yaxlit tarbiyaviy ta'sir tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik jihatdan sanogen tarbiya ta'lim-tarbiya jarayonini salbiy holatlarni cheklash yoki jazolashga asoslashdan ko'ra, shaxsda ijobiy tafakkur, ma'no va axloqiy barqarorlikni qaror toptirishga yo'naltiradi. Bu yondashuvda tarbiya sub'ekti tashqi ta'sir ob'ekti emas, balki o'z ichki imkoniyatlari, qadriyatlarini va ongli tanlovi orqali rivojlanuvchi faol shaxs sifatida qaraladi. Psixologik nuqtai nazardan esa sanogen tarbiya insonning stressga chidamliligi, emosional muvozanati va ichki nazorat mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa tafakkurning barqaror va sog'lom shakllanishiga zamin yaratadi.[4.7]

**Muhokama va natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkurni sanogen shakllantirish pedagogik jarayonda qonuniyatlar, tamoyillar va mexanizmlarning o'zaro integratsiyasi asosida samarali amalga oshadi. Mazkur tizimning nazariy tahlili sanogen tarbiya talabalar tafakkurini salbiy, beqaror va destruktiv yo'nalishlardan sog'lom, barqaror hamda ma'naviy-axloqiy jihatdan mas'uliyatli fikrlashga yo'naltirish imkoniyatiga ega ekanligini tasdiqladi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, sanogen tarbiya shaxsning faqat tashqi xulq-atvoriga emas, balki uning ichki ongiy jarayonlari, emosional barqarorligi va qadriyatlarga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmlariga ham kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar asosida sanogen tafakkurning shakllanishida kognitiv, qadriyaviy, emosional-irodaviy va refleksiv mexanizmlar yetakchi ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Xususan, kognitiv mexanizmlar orqali talabalarda voqelikni ongli anglash, sabab-oqibat bog'liqliklarini tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati rivojlanadi. Qadriyaviy mexanizmlar shaxsning ma'naviy pozitsiyasini mustahkamlab, ijtimoiy va axloqiy me'yorlarni ichki e'tiqod sifatida qabul qilishga xizmat qiladi. Emosional-irodaviy mexanizmlar esa stress, xavotir va ichki ziddiyatlar ta'sirini yumshatib, talabalarda ruhiy muvozanat va o'z-o'zini boshqarish kompetensiyalarini shakllantiradi. Refleksiv mexanizmlar orqali esa shaxs o'z fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlarini tahlil qilish, baholash hamda ongli nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Muhokama natijalariga ko'ra, sanogen tarbiya patogen tafakkurning asosiy belgilarini — salbiy stereotipli fikrlash, ma'nosizlik hissi, mas'uliyatdan qochish,

emosional beqarorlik va axloqiy passivlikni yumshatishda muhim pedagogik resurs sifatida namoyon bo'ldi. Patogen tafakkur insonning ichki nazoratini susaytirib, uni tashqi omillarga qaram holatga olib kelishi aniqlangan bo'lsa, sanogen tarbiya aksincha, ichki barqarorlik, ma'naviy immunitet va ongli tanlovni rivojlantirishga xizmat qilishi asoslandi. Shu jihatdan sanogen yondashuv salbiy holatlarni to'g'ridan-to'g'ri inkor etish emas, balki ularning sabablarini yumshatish va o'rniga sog'lom tafakkur tizimini shakllantirish orqali samaradorlikka erishishi bilan tavsiflandi.

Qiyosiy tahlillar sanogen va patogen tafakkur o'rtasidagi farqlarni yanada yaqqol ko'rsatdi. Sanogen tafakkur ma'no anglash, qadriyatlarga tayangan hayotiy pozitsiya, ichki nazorat va ma'naviy barqarorlik bilan tavsiflansa, patogen tafakkur salbiy kognitiv sxemalar, emosional beqarorlik, mas'uliyatsizlik va ma'naviy bo'shliq bilan xarakterlanishi aniqlandi. Bu esa sanogen tarbiyaning talabalarda nafaqat bilim va xulq-atvorni, balki ichki ma'naviy-axloqiy tayanchlarni ham shakllantirishdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.[9.4]

Tadqiqot natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, sanogen tarbiya asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkurning sog'lom, barqaror va refleksiv shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv natijasida talabalarda ijobiy fikrlash, ma'naviy mas'uliyat, stressga chidamlilik, o'z-o'zini nazorat qilish va qadriyatlarga tayangan hayotiy pozitsiya kabi sifatlar rivojlanadi. Shu bois sanogen tarbiya oliy ta'lim tizimida talabalarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik model sifatida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkurni sanogen shakllantirish zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining muhim pedagogik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sanogen tarbiya talabalar tafakkurini sog'lom, barqaror va ma'naviy jihatdan mas'uliyatli yo'nalishda rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tizim qonuniyatlar, tamoyillar va mexanizmlarning uzviy bog'liqligi asosida tashkil etilib, talaba shaxsining ichki ongiy, emosional va axloqiy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari sanogen tarbiya talabalarda ijobiy fikrlash, ma'naviy immunitet, ichki nazorat, emosional barqarorlik va refleksivlik kabi muhim sifatlarni shakllantirishini ko'rsatdi. Ayniqsa, sanogen yondashuvning patogen tafakkurga xos salbiy stereotiplar, ma'nosizlik hissi, beqarorlik va axloqiy passivlikni yumshatishdagi nazariy-pedagogik imkoniyatlari asoslab berildi. Shu bilan birga, sanogen tafakkurning shakllanishida kognitiv, qadriyaviy, emosional-irodaviy va refleksiv mexanizmlarning o'zaro uyg'unligi hal qiluvchi omil ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqotda sanogen va patogen tafakkurning qiyosiy tahlili orqali ma'naviy-axloqiy rivojlanishda tafakkurning sog'lom yoki salbiy yo'nalishda shakllanishi shaxsning ichki barqarorligi, hayotiy pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyatiga bevosita ta'sir

ko'rsatishi ilmiy jihatdan asosladi. Sanogen tarbiya nafaqat salbiy holatlarni cheklash, balki shaxs tafakkurida sog'lom ma'no, qadriyat va ongli tanlovni qaror toptirish orqali uning ma'naviy kamolotini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Demak, sanogen tarbiya asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkurni shakllantirish pedagogik jihatdan samarali, nazariy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan istiqbolli yondashuv bo'lib, oliy ta'lim tizimida ma'naviy barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli va ichki barqaror shaxsni tarbiyalashning muhim omili sifatida xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov A. Shaxs ma'naviyatini shakllantirish asoslari. – T.: Fan, 2016. – 61-b.
2. Shermuhammedova N.A. Pedagogik faoliyatda ma'naviy tarbiya masalalari. – T.: Fan, 2015. – 41-b.
3. Orlov Yu.M. Styd. Zavist. Seriya 2: Istseleniye razmyshleniyem. – M.: Slayding, 2005. – 96 s.
4. Kant I. Kritika prakticheskogo razuma. – M.: Mysl, 1994. – 72 s.
5. Rogers C. Freedom to Learn. – Columbus: Merrill, 1983. – 156 p.
6. Orlov Yu.M. Sanogennoye myshleniye. – Moskva: Prosveshcheniye, 1991. – 192 b.
7. Leontyev A.N. Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. – Moskva: Politizdat, 1977. – 304 b.
8. Франкл В. Человек в поисках смысла. – М.: Прогресс, 1990. – С. 103.
9. <https://www.scopus.com/pages/publications/105037814564>

